



AGRARIAN REFORMS IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE IN UZBEKISTAN: THE CASE OF KASHKADARYA AND SURKHANDARYA

Yakitjan Buvabayevna Kadirova

Independent researcher at Termez State University

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

xqodirova@bk.ru

Termez, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: agrarian reforms, farmer farm, dehqan farm, household plot, forms of ownership, Kashkadarya, Surkhandarya, grain independence, livestock farming, melioration.

Received: 25.12.25

Accepted: 26.12.25

Published: 27.12.25

Abstract: This article analyzes the essence and content of the agrarian reforms carried out in Uzbekistan during the early years of independence, the renewal of forms of ownership in agriculture, the processes of establishing farmer and dehqan households, as well as the policy of reforming land relations. Using the examples of the Kashkadarya and Surkhandarya regions, the article highlights the changes that have taken place in the agrarian sector, the distribution of household plots to the population, the reduction of cotton fields, the measures taken to increase grain production, and the development of livestock farming. The article provides a scholarly analysis of the challenges in the agrarian sector, shortcomings in management, and the initial results of the reforms.

O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA AGRAR ISLOHOTLAR: QASHQADARYO VA SURXONDARYO MISOLIDA

Yakitjan Buvabayevna Kadirova

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

xqodirova@bk.ru

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: agrar islohotlar, fermer xoʻjaligi, dehqon xoʻjaligi, tomorqa, mulkchilik shakllari, Qashqadaryo,

Annotatsiy: Ushbu maqolada Oʻzbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan agrar islohotlarning

Surxondaryo, don mustaqilligi, chorvachilik, melioratsiya.

mazmun-mohiyati, qishloq xo'jaligida mulkchilik shakllarini yangilash, fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil etish jarayonlari hamda yer munosabatlarini isloh qilish siyosati tahlil etilgan. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida agrar sohada yuz bergan o'zgarishlar, tomorqa yerlarining aholiga taqsimlanishi, paxta maydonlarining qisqartirilishi, don yetishtirish hajmini oshirish va chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Maqolada agrar sohadagi qiyinchiliklar, boshqaruvdagi kamchiliklar hamda islohotlarning dastlabki natijalari ilmiy tahlil qilingan.

АГРАРНЫЕ РЕФОРМЫ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ И СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТЕЙ

Якитжан Бувабаевна Кадырова

*Независимый исследователь Термезского государственного университета
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент*

xqodirova@bk.ru

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: аграрные реформы, фермерское хозяйство, дехканское хозяйство, приусадебный участок, формы собственности, Кашкадарья, Сурхандарья, зерновая независимость, животноводство, мелиорация.

Аннотация: В данной статье проанализированы содержание и сущность аграрных реформ, осуществлённых в Узбекистане в первые годы независимости, обновление форм собственности в сельском хозяйстве, процессы организации фермерских и дехканских хозяйств, а также политика по реформированию земельных отношений. На примере Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей раскрыты изменения, произошедшие в аграрной сфере, распределение приусадебных земель населению, сокращение хлопковых площадей, меры по увеличению объёмов производства зерна и развитию животноводства. В статье научно проанализированы трудности в аграрном секторе, недостатки в управлении и первые результаты реформ.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda mamlakat iqtisodiyotida eng katta muammolardan biri agrar soha bilan bog'liq edi. Chunki sovet davlati davomida respublika

faqat xom ashyo – ayniqsa paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilib, qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari izdan chiqqan, aholining oziq-ovqat va iste’mol tovarlari bilan ta’minlanishi keskin pasaygan edi. Ayniqsa Qashqadaryo va Surxondaryo kabi janubiy viloyatlarda aholining 75 foizdan ortig‘i qishloq joylarda istiqomat qilgani uchun bu hududlarda agrar sohaning ahamiyati yanada yuqori bo‘lgan. Biroq sovet hukumatining oxirgi yillarida mazkur hududlardagi ijtimoiy-maishiy sharoit keskin yomonlashib, aholining hatto asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari ham to‘liq qondirilmay qolgan.

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng mamlakat oldida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish, mulkchilikka munosabatni o‘zgartirish, yerdan foydalanish tizimini tubdan isloh qilish kabi hayotiy muhim vazifalar vujudga keldi. Yangicha iqtisodiy munosabatlarni joriy etish, paxta monokulturasiga bog‘liqlikni kamaytirish, aholini tomorqa yerlari bilan ta’minlash, fermer va dehqon xo‘jaliklarini shakllantirish milliy iqtisodiyotni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Muhokama. Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikada agrar sohani rivojlantirish yuzasidan «Er to‘g‘risida»gi, «Kooperatsiya to‘g‘risida»gi, «Ijara to‘g‘risida»gi, «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonunlar, shuningdek, 1991-yil 21-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PF-295-sonli «Respublikada dehqon (fermer) xo‘jaliklarini yanada mustahkamlash va agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmoni va shu kabi boshqa normativ hujjatlar sohada yangi huquqiy munosabatlarni joriy etishda shuningdek, ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, tadbirkorlik, fermer va shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish imkonini berdi.

Respublikada qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida 1991-1996 yillarda sohada rahbarlik qilishni yaxshilash, agrar islohotlarning huquqiy asoslarini yaratish choralari ko‘rildi. Ayniqsa, Prezidentning 1991-yil 21-dekabrda qabul qilingan «Dehqon fermer xo‘jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash» to‘g‘risidagi farmoni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini zamon talablari asosida tashkil qilishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994-1995 yillarda qishloqda islohotlar o‘tkazishga doir o‘ndan ortiq qarorlar qabul qildi. 1996-yilda qishloq va suv xo‘jaligi boshqarishning, qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan butunlay yangi tizimini yaratish maqsadida «O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Shu asosda qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi vazirliklari birlashtirildi. 1996-yil 3-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan imzolangan «Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora

tadbirlari to'g'risidagi» farmoni qishloqda islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan qator chora va tadbirlarni belgilab berdi. Shundan keyin agrar sohada islohotlar jarayoni jadallashdi. Jumladan, 1992-yildan boshlab 1995-yil boshlarigacha respublikaning qishloq tumanlaridagi 1137 davlat xo'jaligi (sovxoz) boshqa mulk shakliga 530 ta kolxoz shirkat xo'jaligiga aylantirildi. Bundan tashqari, agrar sohada 350 ta kooperativ, 100 dan ortiq ijara xo'jaliklari tashkil etildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikada chorvachilik sohasida isloh qilish va sohaga xususiy tadbirkorlikni jalb qilish yuzasidan ham bir muncha ishlar amalga oshirildi. Misol uchun Surxondaryo viloyatida jamoa xo'jaliklardagi 1516 ta qoramolchilik fermasi xususiylashtirish yo'li bilan shaxsiy tadbirkorlarga sotilib, chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. Ushbu sotilgan qoramollar davlat xususiylashtirish mulkchiligi tomonidan nazoratga olinib, aholini go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilashga erishildi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida viloyatda go'sht yetishtirish 1996-yilda 1,7 foizga, sut mahsulotlarini yetkazib berish 2,4 foizga o'sdi. Eng muhimi chorvani xususiylashtirish, shaxsiy chorva xo'jaliklarining rivojlantirilishi aholini ish bilan ta'minlashni yaxshilash bilan bir qatorda aholining xususiy va shaxsiy mulkka nisbatan munosabatini o'zgartirdi. 1996 yilda Surxondaryo viloyati banklari tomonidan xususiy va shaxsiy chorva xo'jaliklariga 13 mln so'mlik amaliy yordam berildi[1].

Agrar sohada o'tkazilgan islohotlar asosida oldingi davlat va jamoa xo'jaliklari o'rnida qishloq xo'jalik shirkatlarini joriy etildi. Chunki, mulkchilikning bu shakli shirkat a'zolarini ko'ngillilik va muayyan shartlar asosida birlashtirar edi. Ushbu xo'jalik shakllarining turlari

Mulkiy pay – qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) har bir a'zosining kooperativ (shirkat) pay jamg'armasi qiymatidagi ulushini belgilaydi va kooperativ (shirkat) a'zosiga kooperativning yakuniy daromadidan (foydasidan) dividendlar tariqasida tegishli ulushni olish huquqini beradi. Pay jamg'armasi qishloq xo'jaligi kooperativi a'zolariga umumiy ulushli mulk asosida, bo'linmas jamg'arma esa, umumiy birgalikdagi mulkka qarashli bo'ladi. Pay jamg'armasi qishloq xo'jaligi kooperativi a'zolari o'rtasida mulkiy paylarga taqsimlanadi[2:90].

Oilaviy pudrat – bu ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalangan holda eng ko'p mahsulot yetishtirish maqsadida ishchilarning oilaviy jamoasi bilan xo'jalik ma'muriyati o'rtasida tuziladigan jamoaviy shartnomaning ko'rinishi. Oila jamoasi ma'lum shartlar asosida ishlab chiqarish vositalaridan foydalangan holda muayyan miqdordagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarib, xo'jalikka yoki tayyorlov idorasiga topshirishni o'z bo'yniga oladi. Xo'jalik ma'muriyatining asosiy majburiyati oilaviy jamoaning ishlashi uchun qulay sharoit yaratib berishi, unga zarur bo'lgan moddiy-texnik ta'minotni yetkazishi, mahsulotni hech

bir muammosiz qabul qilib, jamoa bilan kelishuv bo'yicha o'z vaqtida hisob-kitob qilishdir. Tomonlarning majburiyatlari shartnomada qayd etiladi. Shu bois uning bajarilishi uchun har ikki tomon mas'ul hisoblanadi. Pudrat boshqa shakllardan shunisi bilan farq qiladiki, ijarachilar yerga vaqtinchalik egalik qilgan holda yetishtirgan mahsuloti va o'z mehnati natijasining to'laqonli egasi bo'ladi[2:90].

O'rganilayotgan davrda shirkat xo'jaliklari bilan bir qatorda dehqon xo'jaliklari ishini yanada takomillashtirish zarur edi. Ushbu maqsadda 1998-yil 30-aprelida «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 1-bob 1-moddasida: «Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi» deyilgan[3]. Umuman olganda, dehqon xo'jaligi – bu o'z mulki yoki ijaraga olingan yer, suv, boshqa vosita va mol-mulklardan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqarishni, qayta ishlashni, saqlashni va sotishni amalga oshiruvchi, oilaviy, oilaviy mehnat yoki bir qancha shaxslarning birgalashgan mehnatiga asoslangan yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik subyektidir[2:58].

1992-yil 13-iyun kuni Qashqadaryo viloyat hokimligida xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashi bo'lib o'tdi. Ushbu kengashda, respublika Prezidenti farmoni asosida 3 yil ichida viloyat aholisiga 25 ming gektar yer dehqonchilik faoliyati uchun bo'lib berilishi rejalashtirildi. Viloyatda 1992-yilning iyunigacha bo'lgan davrida 2421 ta fermer xo'jaligi tashkil etildi. Ushbu fermer xo'jaliklariga 24 ming gektar yer ajratildi[4]. Fermerlik harakatiga berilayotgan e'tibor asosida ushbu mulkchilik shakli agrar sohaning xo'jaligiga qishloq xo'jaligining maqbul shakli sifatida alohida e'tibor qaratildi.

Islahotlarning birinchi bosqichida respublikada odamlarga shaxsiy tomorqa uchun qo'shimcha ravishda 550 ming gektar sug'oriladigan yer ajratildi va natijada shaxsiy tomorqa uchun berilgan yer maydoni 700 ming gektarga yetdi. 9 milliondan ortiq kishi tomorqali bo'ldi. Jumladan, 1992-1995 yillarda Surxondaryo viloyatida shaxsiy tomorqalar uchun 22 ming gektar yer ajratilib, yersiz hamda kam yerli dehqonlarga berildi. Eng muhimi shaxsiy tomorqa uchun ajratilgan yerning asosiy qismi qishloqdagi yosh oilalarga ajratilib, ularga uy-joy qurish va o'zlarining shaxsiy xo'jalikni shakllantirish uchun taqdim etildi. Surxondaryo viloyatida ajratilgan tomorqalarning 8 ming gektari asosan sobiq Sovet hukumati davrida mavjud bo'lgan sovxozlardagi yerlar hisobidan berildi[5]. Chunki sovet hukumatining so'nggi yillarida sovxozlarga tegishli yerlarning e'tiborsiz qoldirilishi yerlarning meiorativ holatining buzilishi tufayli hosildor yerlarning ko'pchiligi sho'rlanib, qamish va butazorlarga aylanib, hosildorlik quvvatiga ancha zarar yetkazilgan edi. Ushbu tashlandiq yerlarning aksariyat qismi shaxsiy

tomorqa xo'jaligi sifatida tarqatildi, natijada tomorqa egalari yerga yangicha munosabatda bo'la boshladi bu esa aholi qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash hamda bozor uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish imkoniyatini yaratdi.

Janubiy hududlarda ham islohotlarning dastlabki yillarida sovxozlar jamoa xo'jaliklariga aylantirilgan bo'lsa-da, ular xo'jalik yuritishda o'zlarini to'la-to'kis oqlamadi. So'ngra bu xo'jaliklar mulk paylari asosida shirkatlarga aylantirildi. 1993-yil Qashqadaryo viloyatida 125 ta davlat xo'jaligi jamoa-shirkat xo'jaligiga aylantirilgan bo'lsa, 1993-yilda viloyatda 24 ming gektar maydonda 1216 ta dehqon fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsata boshladi[6].

O'rganilayotgan davrda qishloqda dehqon fermer xo'jaliklarini shakllantirish jarayonini jadallashtirish maqsadida ularga qishloq xo'jalik ekinlari ekishda mustaqillik berildi. Ayniqsa, Respublikaning don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashni tiklashni yo'lga qo'yish ishlari izchillik bilan amalga oshirildi, respublikada paxta ekiladigan ekin maydonlari 2 million gektardan 1,5 million gektarga qisqartirilib, donli ekinlar maydoni 1,2 millionga gektarga kengaytirildi[7].

O'rganilayotgan davrda Surxondaryo viloyatida ham qishloq xo'jalik sohasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning samarasi sifatida tarmoqda qator ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, 1995-yilda viloyatda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish ancha sezilarli o'sib, paxta hosildorligi - 370,6 ming tonnaga, don - 269,0 ming tonnaga, shu jumladan, bug'doy - 200,8 ming tonnaga, sabzavot mahsulotlari - 120,0 ming tonnaga, kartoshka - 18,4 ming tonnaga, poliz mahsulotlari - 32,4 ming tonnaga, ho'l mevalar - 25,1 ming tonnaga, uzum hosildorligi esa - 75,1 ming tonnaga yetdi[8].

Surxondaryo viloyatida 1997-yilda agrar sohada yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 32612,5 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1998-yilga kelib, bu ko'rsatkich 48361,6 million so'mni tashkil etdi[10:338]. O'rganilayotgan davrda Surxondaryo viloyatida islohotlarni amalga oshirishdagi ma'muriy buyruqbozlik, ishni tashkil etishdagi mahalliy sharoitni hisobga olmaslik, yerga egalik qilishga to'sqinlik holatlari sababli qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish nisbatan pasaydi. Oqibatda 1996-2000 yillarda viloyat bo'yicha paxta hosildorligi 5,5 sentrga pasayib, davlatga paxta sotish rejasi 1995-yili 97,5 foiz, 1996-yil 94,8 foiz, 1997-yil 90 foiz , 1998-yili 88,3 foizga bajarildi. 1999-yilda davlatga 181 ming tonna paxta kam sotildi[9].

Ma'lumki, chorvachilik sohasi ham qishloq xo'jaligida muhim o'rin tutadi. Chunki, chorvachilik xo'jaligi orqali yetishtirilayotgan go'sht, sut, tuxum va boshqa shu kabi mahsulotlar aholining ehtiyojlarini qondirishda muhim o'rin egallaydi. Sovet hukumatining so'nggi o'ng yilliklarida barcha sohada bo'lgani singari chorvachilik sohasida ham jiddiy muammolar yuzaga keldi. Ayniqsa, sohaga e'tiborsizlikning kuchayishi, chorva mollarini talon-taroj qilish, yem-

xashak ta'minotining izdan chiqishi sohada rentabellikni pasaytirib yubordi. Mustaqillikning ilk yillaridayoq chorvachilik sohasini tizimli rivojlantirish borasida qator dasturlar ishlab chiqildi. Chorvachilik sohasida ham ko'p ukladli mulkchilik shakllarining vujudga kelishi uchun sharoit yaratildi. Natijada, yangi chorva-fermer xo'jaliklari, davlat bo'rdoqichilik majmualarining tashkil topa boshladi. 1995-yil Surxondaryo viloyati davlatga 73,4 ming tonna mol va parranda go'shti (tirik vaznda), 307,5 tonna sut, 68,2 million dona tuxum, 1515,8 tonna jun, 1023,0 ming tonna pilla topshirdi. Shu yillarda viloyatda qoramollar soni 44,3 ming boshga, qo'y va echkilar soni 906,3 ming boshga, parrandalar soni 692,0 mingtaga yetkazildi[10:337-338].

Xulosa. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda agrar sohani tubdan isloh qilish mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, ayniqsa oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri bo'ldi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida ko'rilgan chora-tadbirlar shu davrda amalga oshirilgan agrar siyosatning mazmun-mohiyatini yaqqol namoyon etdi. Jumladan, «Er to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida», «Ijara to'g'risida», «Kooperatsiya to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi, fermerchilik va dehqon xo'jaliklarining huquqiy asoslarini mustahkamladi, qishloqda yangi xo'jalik yurituvchi subyektlar qatlamining shakllanishiga xizmat qildi.

Aholiga tomorqa yerlarining ommaviy ravishda ajratilishi, paxta maydonlarining qisqartirilib, o'rniga donli ekinlarning kengaytirilishi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirishga xizmat qildi. Janubiy viloyatlarda sovxoz va kolxozlarning qayta tashkil qilinishi, kooperativ va shirkat xo'jaliklarining paydo bo'lishi, ayniqsa fermerlik harakatining avj olishi qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillarining joriy etilishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, chorvachilikni xususiylashtirish, shaxsiy xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlash ham aholining go'sht, sut va boshqa muhim mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini bosqichma-bosqich qondirish imkonini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Surxon tongi, 1996-yil, 14-dekabr. Chorvachilik va iqtisodiyot. 1-bet.
2. Исмоилов А., Муртазаев О. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. –Тошкент: Молия, 2005. – Б. 58, 90.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-son, 88-modda; O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 21-dekabrda O'RQ-506-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.12.2018 y., 03/18/506/2356-son).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Qashqadaryo viloyati filiali joriy arxivi, 829-jamg'arma, 1-ro'yxat, 22-yig'ma jild, 76-varaq.

5. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 3-bayonnoma, 5-hujjat, 1995-yil 10-fevral, 11-bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Qashqadaryo viloyati filiali joriy arxivi. 829-jamg'arma. 1-ro'yxat. 85-yig'ma jild. 1725-varaq.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Qashqadaryo viloyati filiali joriy arxivi. 829-jamg'arma. 1-ro'yxat. 36-yig'ma jild. 180-varaq.
8. Surxon tongi, 1996-yil, 14-sentyabr.
9. И.А.Каримов. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари» — Т.: «Ўзбекистон». 1997. 250 б.
10. С.Н.Турсунов, Э.О.Қобилов ва бошқалар. «Сурхондарё тарих кўзгусида» -Т.: «Шарқ». 2001. 337-338 б.